



THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF SA'DIDDIN HAMAVIY ON SUFISM

Alisher Shavkatovich Rajabov

Independent Researcher

Bukhara State Pedagogical Institute

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Sa'diddin Hamawi, Holy Quran, philosophy of Wahdat al-Wujud, practical Sufism, theoretical Sufism, Sharia, Tariqa, Ma'rifa, Haqiqa.

Received: 24.02.26

Accepted: 25.02.26

Published: 26.02.26

Abstract: This article analyzes the spiritual heritage related to Sufism and the Sufi views of Sa'diddin Hamawi, one of the major theorists of medieval Sufi philosophy who made a worthy contribution to the development of the "Wahdat al-Wujud" doctrine. A key topic occupying an important place in his views - the nafs (self/ego) and the problem of its cultivation - is also examined.

SA'DIDDIN HAMAVIYNING TASAVVUFGA OID FALSAFIY QARASHLARI

Alisher Shavkatovich Rajabov

Mustaqil izlanuvchi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Sa'diddin Hamaviy, Qur'oni Karim, vahdat ul-vujud falsafasi, amaliy tasavvuf, nazariy tasavvuf, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'rta asrlar yashagan tasavvuf falsafasining yirik nazariyotchi vakillaridan biri bo'lgan, "Vahdat ul-vujud" ta'limotining rivojiga munosib hissa qo'shgan Sa'diddin Hamaviyning tasavvufga oid ma'naviy merosi hamda tasavvufiy qarashlarida muhim o'rin egallagan mavzulardan biri nafs va uni tarbiyalash muammolari tahlil qilingan.

ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ СА'ДИДДИНА ХАМАВИ НА СУФИЗМ

Алишер Шавкатович Раджабов

Независимый исследователь

Бухарского государственного педагогического института

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Садиддин Хамави, Священный Коран, философия вахдат аль-вуджуд, практический суфизм, теоретический суфизм, шариат, тарикат, марифат, хакикат.

Аннотация: В данной статье анализируется суфийское духовное наследие Садиддина Хамави, одного из крупнейших теоретиков средневековой суфийской философии, внесшего достойный вклад в развитие учения “Вахдат аль-вуджуд” а также одна из тем, занимающих важное место в его суфийских воззрениях - проблема нафса и его воспитания.

Kirish. Hazrati Payg’ambar davrida islom ilmlari hali shakllanmagan edi. Vaqt o’tishi bilan, muayyan jarayon davomida musulmonlarning qiziqishlari, ehtiyojlari va to’plagan bilimlari asosida fiqh, hadis, kalom, tafsir bilan bir qatorda tasavvuf ilmi ham vujudga kelgan. Bu ilmlar bilan shug’ullanuvchilarga mos ravishda faqih, muhaddis, mutakallim, mufasssir va mutasavvif nomlari berilgan. Tasavvuf ilmi hali nom sifatida paydo bo’lmasdan avval, tasavvufning shakllanish jarayonida faol bo’lgan zotlarga so’fiy nomi berilgan. Ilk so’fiy kim bo’lgani va tasavvufning bir ilm sifatida qachon paydo bo’lgani xususida manbalarda turli ma’lumotlar mavjud. Bu tushunchalarning qachon paydo bo’lgani haqidagi rivoyatlar o’rniga, ularning qachondan boshlab yozma manbalarda uchray boshlaganiga e’tibor qaratiladi. So’fiy va tasavvuf tushunchalari bir o’zakdan kelib chiqqan bo’lsa-da, turli davrlarda paydo bo’lgan. Sarrojga ko’ra, so’fiylar faqat bir ilm bilan shug’ullanadigan, biror maqom va holga burkangan kishilar emasdir. Ular ma’naviy ilmlarning manbai, hollarning makoni va qadimgilar axloqining timsolidir. Ular doimo yaxshiroq va go’zalroqqa intiladilar. Bir holdan boshqa bir holga o’tadilar. Ularni faqat bir hol, maqom yoki ilm bilan eslash to’g’ri bo’lmagani uchun kiygan liboslariga nisbatan “so’fiy” deb nomlanganlar. Ularga xos bo’lgan ilm esa “tasavvuf” deb atalgan. Shunga ko’ra, “suf” so’zidan “so’fiy”, “so’fiy”dan esa “tasavvuf” tushunchasi hosil bo’lgan. Keyinchalik bu qatorga mutasavvif va mustasvif tushunchalari ham qo’shilgan. Tasavvufning mazmuni va mohiyatiga oid ko’plab ta’riflar va izohlar ulug’ shayxlar va mutasavviflarning qarashlarida ko’zga tashlanadi. Masalan, Ibn al-Jaloga fikriga ko’ra: “Tasavvuf bir haqiqatdirki, unda rasmiylik bo’lmas” , ya’ni rasm muomalada xalqning nasibasidir, haqiqat esa Haqqa xosdir. Tasavvuf bu xalqdan rasmiy bo’lmagan tomon yuz burmoqlikdir.

Abu Umar Damashqiy esa “Tasavvuf bu nuqsonli ko’z bilan borliqni ko’rish emas, balki undan ko’zni uzishdir” -mazmunidagi fikrni ilgari surgan. Damashqiy fikrlarining tahlili shuni ko’rsatadiki, borliqqa nuqsonlik ko’z bilan boqishlik baqoyi sifatni, ya’ni bandada hali bashariy sifatlar borligini anglatadi, borliqdan nigohni uzishlik fanoyi sifatni, ya’ni banda bashariy sifatlar

uzilganligini anglatadi. Borliq yo'qolsa, nazar ham yo'qoladi. borliqdan ko'zni uzish rabboniy basiratning baqosini bildiradi, ya'ni har kim o'zini ko'rmasa, Haqni ko'radi. Shu jihatdan tolibning borlig'i ham tolib bo'ladi. Uning ishi undan unga tushadi va unga o'zidan boshqa yo'l bo'lmaydi. Bas, biri o'zini ko'rsa, nuqsonli ko'radi, biri esa ko'zni o'zidan uzsa va o'zini ko'rmasa, Haqni ko'radi. Noqis ko'rgan bo'lsa, uning ko'rgani hijobdir. Bu aytilganlar tasavvuf tariqatida va ma'no arboblari orasida qaviy asliy gaplardir. Ammo hozir bularni sharh qilish o'rni emas.

Abu Bakr Shibliy tasavvuf haqida "Tasavvuf shirkdir, negaki u qalbni o'zga bo'lmagan o'zgalar ko'rishidan qo'riqlashdir" -mazmunidagi fikrni qayd etgan. Bu fikrni tavhidda isboti kelgan, birovni ko'rish shirk emas. Qalbdagi o'zga bo'lmasa uni o'zganing zikridan qo'riqlash maholdir deya ta'riflash maqsadga muvofiqdir.

Muhammad ibn Ali ibn al-Husayn ibn Ali ibn Abu Tolib qarashlarida tasavvufning xulq bilan bog'langanligi e'tiborga molik holatdir. Husayn ibn Ali ibn Abu Tolib "Tasavvuf bu xulqdir. Kimki sendan xulqda ziyoda bo'lsa, u tasavvufda ham sendan ziyodadir", ya'ni tasavvuf bu xushxulqlilikdir. Kim xushxulqroq bo'lsa u so'fiyroqdir. Xushxulqlilik ikki xil bo'ladi: biri xalq bilan bo'lsa, biri Haq bilandir. Haq bilan xushxulqlilik bu Uning taqdiriga rozi bo'lmoqlikdir. Xalq bilan xushxulqlilik esa Haq rizosi yo'lida uning yoqimsiz suhbatlarining og'irligini ko'tarishdir. Har ikkovi ham uning tolibining o'ziga qaytadi. Haq ta'olo tolibning rozi bo'lishidan, uning qiyinchilik ko'rishidan behojatdir. Va ayni paytda har ikkovi Uning vahdoniyat nazoratiga bog'liq sifatdir. Tasavvuf ahli esa ma'no darajasida uch qismga bo'linadi: birinchisi so'fiy, ikkinchisi mutasavvif, uchinchisi mustasavvif.

Bas, so'fiy o'z tabiatining qabzasidan ya'ni to'sqinliklaridan uzilib, haqiqatga payvasta bo'lgan va o'zidan foni, Haqqa esa boqiy bo'lgan kishidir. Mutasavvif shunday kishiki, u mujohadada bu darajani talab qiladi va o'z talabi yo'lida so'fiylar qilgan amallarni durust bilib, ularga ergashadi. Mustasavvif esa boylik, obro' va dunyoviy manfaatlar uchun o'zini ularga o'xshatadi, aslida u ikki toifaning birortasining ma'nosidan xabari yo'qdir. U to'g'risida shunday deyilgan: "Mustasavviflar so'fiylar oldida pashshadek, boshqalar oldida bo'ridekdirlar", ya'ni mustasavvif asl so'fiylar yonida haqir bir pashshaga o'xshaydiki, uning kirdikorlari hoyu havasdan boshqa narsa emasligi ularga ma'lumdir. Boshqalar yonida esa buzg'unchi, purfasod bo'riga o'xsharlarki, qilmishlari bo'g'izlashu o'laksaxo'rlikdan boshqa narsa emas.

Bas, so'fiy - sohibi vusul, mutasavvif - sohibi usul, mustasavvif - sohibi fusuldirlar. Kingaki vusul, ya'ni vasl nasib etibdi u maqsudiga yetibdi, murodini topibdi. Kingaki usul, ya'ni asl nasib etibdi, u tariqat hollaridan joy olibdi, bu hollarning latifliklaridan sokinu

mustahkam bo'libdi. Kingaki fusul, ya'ni fasl, ayrolik nasib etibdi, u barchasidan ayrilibdi, rasmiy dargohdan o'chirilibdi, rasman ma'nodan ham vasldan ham asldan mahjub qolibdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuga oid ma'lumotlar Sa'diddin Hamaviyning "Mahbub ul-muhibiyn va matlab ul-vosiliyn" (Muhiblarning mahbubi va vasl istovchilarning matlabi), "Al-misbah fit-tasavvuf", "Bahr ul-maoniy"(Ma'nolar ummoni), "Risola dar tasavvuf"(Tasavvuf haqida risola) kabi asarlarida batafsil bayon qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda analiz, sintez, tarixiylik, sinergetika va germenevtika, vorisiylik, qiyosiy tahlil, usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Sa'diddin Hamaviy tasavvufga berar ekan, tasavvufning etimologiyasidan ko'ra uning maqsadlari va amaliyotlariga e'tibor qaratgan. Biroq uning xirqa bilan bog'liq izohlariga nazar tashlansa, tasavvuf tushunchasi "suf" so'zidan kelib chiqqaniga ishonchi komil ekani anglashiladi. Bizning fikrimizga ko'ra, atrofida buning aksiga doir qarash yoki bayonotning yo'qligi uning etimologik izoh berishga ehtiyoj sezmasligiga sabab bo'lgan. Mutasavvifning tasavvufga bergan ta'riflari va g'oyalaridan, tasavvufning maqsadiga urg'u bergan izohlardan tashkil topganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, Hamaviyning tasavvufga bergan ta'riflari quyidagicha ko'rinish olgan: "Tasavvuf haqiqatlarni o'zida jam etuvchi, haqiqatlarning sirlarini o'rgatuvchi hayot tarzidir. Kishining Allohdan o'zga hech qanday tayanchga ega bo'lmaslikni va sabablarga bog'lanib qolmaslikni talab etar. Tasavvufning toshi Haq taoloning ta'bidiga; sodi safo va sidqqa, vovi viqoyat va rifqqa; fosi esa farog'at va shavqqa ishora qilar. Tasavvuf yo'liga kirgan kishi siddiq va safo ahli bo'lishi uchun har amalida Haq taologa tavakkul qilishi, undan o'zga chora izlamasligi lozim erur. Tasavvuf yolg'onchilik, mansabparastlik, zulm kabi yomon illatlardan qochib, sidq va adolat bilan yashashdir. Ya'ni, yomon holatlarni tark etmoq, o'rniga go'zal axloqni vujudga keltirmoqlik demakdir. Tasavvufda muhim bo'lgani istiqomatdir. Buning yonida tavba, zuhd, tavoz'e, sabr, shukr, xavf, rajo, taqvo, rizo, tavakkul, faqr, qurb, uns, ilm-i yaqin sohibi bo'lish kabi ko'plab majburiyatlari bordir. Tasavvuf qalbning tasfiyasi va nafsning tazkiyasidir. Tasavvuf shikoyatni tark etmoq, ma'naviy sirlarni oshkor etmaslik, baloga sabr qilish va yaxshilik qilishdir". Hamaviy tasavvuf nima ekanligi haqidagi qarashlarini o'zidan oldin yashagan so'fiylarning qilgan naqlari va qarashlari bilan ham qo'llab-quvvatlagan va ularning fikrlarini izohlagan. Ushbu naqlarning bir qismi quyidagilardan iborat. "So'fiylarning ba'zilariga ko'ra, tasavvuf dunyoviy maqsadlardan xalos bo'lishdir. Junayd Bag'dodiyning fikriga ko'ra, tasavvuf to'rt narsani taqozo qiladi: kuchli bo'lganda kechirmoq, maqom sohibi bo'lganda mutavoze' bo'lmoq, adashganga nasihat qilmoq va minnat qilmasdan yaxshilik qilmoqlikdir. Ruvaym tasavvufning uch rukni borligini aytgan. Bular faqirlik va iftikor yo'lini tutmoq, qo'lidagini o'zi muhtoj bo'lsa ham infoq qilmoq va

insonlardan keladigan manfaatga nisbatan mustag'niy (behojat) bo'lmoqdir. Junayddan so'fiylarning xususiyatlari haqida so'ralganda, u shunday degan: "Ularning ovqatlanishlari bemorning ovqatlanishidek, uyqulari esa suvga g'arq bo'layotganlarning uyqusidekdir".

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, Hamaviy bergan ta'riflarning deyarli barchasi tasavvufning amaliy yo'nalishi va maqsadlari atrofida shakllangan. Asarlarida nazariy tasavvufga ko'proq o'rin bergan Hamaviyning bu o'rinda tasavvufning amaliy yo'nalishiga alohida urg'u berganligi e'tiborga molik jihatlardandir. Mutasavvifning amaliy tasavvufga ko'proq e'tibor qaratgani shundan dalolat beradiki, u amaliy tasavvufni nazariy tasavvufning ham sababi, ham zaruriy sharti sifatida ko'rgan. Boshqacha aytganda, uning metafizikaga oid bilimlar tasavvuf amaliyoti tufayli qo'lga kiritilganini qabul qilishidir. U tasavvuf amaliyotlarini haqiqatni bilishga olib boruvchi pillapoya sifatida ko'rish bilan bir qatorda, ularni o'tkinchi bir usul sifatida ham ko'rmaydi. Aksincha, u so'fiy qaysi maqom va martabada bo'lishidan qat'iy nazar, bu amaliyotlarni muntazam ravishda davom ettirishi kerakligini qat'iy himoya qiladi.

Sa'diddin Hamaviyning fikricha, tasavvuf yo'liga kirishning uchta sharti bor. Birinchisi, tavhid va shariat ilmini egallash. Bundan mahrum bo'lganlar haqiqiy tasavvufdan ham mahrum bo'ladilar. Ilmsiz kishilar tasavvuf yo'liga kirganlarida mustahkam bir murshidning muridi bo'lmasalar, shaytonning o'yinchog'iga aylanadilar. Hamaviy tasavvuf yo'liga yangi kirgan kishilar uchun "tolib" tushunchasini qo'llagan. Uning fikricha, tolib so'fiy bo'la olishi uchun uchta shartni bajarishi lozim. Birinchisi, shariatni bilishi va unga bo'ysunishi, ikkinchisi, tariqat yo'lini afzal ko'rish va uning talablarini bajarishi, uchinchisi esa, haqiqat ilmiga intilishidir. Shariat amalga, tariqat hollarga, haqiqat esa ma'naviy sirlarga asoslanadi. Shariat olimi haromdan, tariqat olimi esa harom va halol farqiga bormay, sulukka to'sqinlik qiladigan har narsadan saqlanadi. Haqiqat olimi esa hamma narsani, hatto o'z mavjudligini ham tark etib, Robbi huzurida foni bo'ladi. Hamaviy shariat, tariqat va haqiqat qiyosi haqida shunday deydi: "Tariqat va haqiqat ilmi daryo kabidir. Shariat solikning u daryoda o'zi vositasi ila suzuvchi kema kabidir. Haqiqat esa dengiz tubidagi gavharga o'xshar. Shariat kemasi bo'lmasa, u haqiqatni izlamochi bo'lgan kishi, shubhasiz, dengizda g'arq bo'lar. Shariatga bo'ysungan najot topar. Tariqatdan xabardor bo'lgan haqiqat ilmini kashf etar. Ibora/nassning aql bilan tushuniladigan ma'nolari bilan bir qatorda qalb, fuod va sir bilan tushuniladigan ma'nolarini ham o'rganar. Rivoyat bilan eshitganini ro'yo bilan tasdiq etar".

So'fiyning shariatga bo'ysunishiga urg'u bergan Hamaviy shariatni ikki jihatdan, ya'ni iymon va amal nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. U so'fiyning iqmoni haqida shunday fikr bildirgan: "(So'fiy) avvalo Allohdan o'zga iloh yo'qligiga va Muhammad (s.a.v.) uning elchisi ekaniga, farishtalarga, kitoblarga, Allohning fe'l, ism va sifatlariga, payg'ambarlarga sodiq va

xolis e'tiqod qilishi kerak. Alloh har bir narsani biluvchi, har bir narsani yaratuvchi, yo'qdan bor qiluvchi, joy, zamon va makondan pokdir. Uning fe'l va sifatleri maxluq emas. Uning o'xshashi ham, ziddi ham yo'q" Uning imon shartlari va nimaga ishonish kerakligi haqidagi fikrlarini birgalikda ko'rib chiqqanimizda, quyidagi xulosaga kelish mumkin. Iymon; Allohga, farishtalarga, kitoblarga, payg'ambarlarga, sifatlarga va oxirat kuniga sidq, ixlos, tavakkul va rizo bilan iymon keltirish va o'z hayotini shunga muvofiq yo'lga qo'yishdir.

Bu holatda uning tasavvuf tushunchasida sunniylik bilan tasavvufni birlashtirgan e'tiqod paydo bo'lganini ko'rish mumkin. Imon va amal ajralmas butunlik ekanini, birisiz ikkinchisi haqiqiy bo'lmashligini o'ylagan Hamaviy, "Bahrul-maoniy"da imon va amal o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratgan quyidagi iboralarga o'rin beradi: "...Iymonning qabul bo'lish sharti esa qalb bilan tasdiqlash, til bilan iqrar qilish va iymonning talablaridan bo'lgan barcha amallarni bajarishdir. Namozning farz ekaniga iymon keltirish kufrdan qutqaradi, jahannamdan emas" . Bu so'zidan anglashiladiki, uning tasavvufni shariatdan ajratmasdan yoritish usuli, bizningcha, tasavvufni mustahkam asoslarga qo'yish jihatidan tahsinga sazovordir.

Hamaviyga ko'ra, iymon keltirgan kishini hisobga olgan holda, uch xil iymon haqida gap ketmoqda. Bular iymon ul-javob, iymon ul-ayon va iymon ul-g'aybdir. Iymonul-javob - misaq kunida Alloh taoloning bandalariga "Men sizning Rabbingiz emasmanmi?" degan savoliga ijobiy javobdir. Iymonul-ayon farishtalar iymoni kabi iymon bilan ro'yat birlashgan iymondir. Iymonul-g'ayb esa, mo'min bandalarning Haq Taologa va u iymon keltirilishini istagan narsalarga ko'rmasdan iymon keltirishlaridir. Hamaviy, iymonul-g'aybni ham o'z ichida uch maqomda o'rganadi. Bular xolis bandalarning imoni bo'lgan iymonul-maqbul, shubha yoki inkordagi munofiqarning imoni bo'lgan iymonul-mardud va oriflarning imoni bo'lgan iymonul-mavqufdir .

Hamaviy, tavhid va shariat ulamolarini uch qismga ajratadi. Birinchisi, Allohni tanigan olimlar bo'lib, ular "majzubi solik" deyiladi. Bular Haq Taoloning qalblariga ma'rifatini, haybatini va sevgisini joylashtirgan kimsalardir. Ikkinchisi, Allohning amrini va nahy qilganini biladigan faqihlardir. Bular Haq Taologa haqiqiy ibodat qiluvchi, uning buyruq va ta'qiqalarini bajaruvchi solih zotlardir. Ilmga ega bo'lib, ilmiga amal qilmaganlar Hamaviyga ko'ra olim emas. Uchinchisi ham faqihlarning, ham majzubi soliklarning ilmiga ega bo'lgan oriflardir. Ular ilohiy olamni ham, bashariy olamni ham biladilar. Ular ilohiy olam haqidagi bilimlari vositasida Allohga shukr va ibodatlarini ado etadilar. Ular bashariy ilmlar yordamida insonlarning dini va dunyosi uchun foydali ishlarni amalga oshiradilar. Allohga bo'lgan muhabbatlari ularni dunyodan ajratadi va ilohiy olamga olib chiqadi. Ilohiy olamdan insoniy olamga qaytganlarida o'zlarini oddiy insonlardek tutganlari uchun ularning haqiqatini hech kim bilmaydi. Ular

odamlar bilan birga bo'lganlarida xuddi o'shalardek harakat qiladilar, Rablari bilan yolg'iz qolganlarida esa, Unga ta'zim qiladilar .

Tolibning so'fiy bo'lishi uchun bajarishi kerak bo'lgan ikkinchi shart - tariqatga bog'lanib, suluk qilishdir. Hamaviyning tariqatdan maqsadi ta'sis etilgan shaklda shayxi, vaqfi, xonaqohi bo'lgan muassasa emas. Uning nazdida tariqat Haq Taologa olib boruvchi har qanday yo'ldir. Bu yo'lda ilm solikning yoniga olgan ozuqasidir. Shayx u bilan birga yuradigan hamrohidir. Hamaviyga ko'ra, tariqatlar Haq Taoloning rahm-shafqati homiyligida bo'lib, ularning soni maxluqotning nafasleri soniga tengdir. Shuning uchun so'fiylarning iboralarida ixtiloflar juda ko'p. Biroq, yuqorida tilga olingan ixtiloflar oxir-oqibat bitta eshikdan chiqqanligi sababli, turli talqinlar muammo tug'dirmaydi. Haqiqatan ham, Hamaviy "al-Fath" asarining muallifi deb tanishtirgan so'fiydan (ma'nan) mana bu she'rni keltirib o'tadi: "Bizning iboralarimiz har xil, lekin go'zallik birdir. Va bu jumlalarning barchasi senga ishoradir". Garchi tariqatlar turlicha bo'lsa-da, bu tafovutlarning umumiy jihatlari bor. O'limdan oldin o'lish, shariatga bo'ysunish, nafs-i ammoraning sifatlaridan xalos bo'lish va uning zulmatidan Haq taoloning sifatleri nuriga sig'inish ularning boshida turadi.

Hamaviy tariqatlarni tasniflashda "tariqi abror, tariqi axyor va tariqi shutter" kabi mashhur tasnifdan foydalanadi. Uningcha, tariqi abror nafs-i ammoraning kamol martabasiga erishganlarning tariqi bo'lib, ilm al-yaqin bilan qurollangan kishilarning yo'lidir. Tariqi axyor nafs-i lavvomaning kamol martabasiga erishganlarning yo'lidir. Bularning zohirida bo'lgani kabi botinida ham adolat hokimdir. Bu zotlar ayn al-yaqin martabasiga erishgan zotlardir. Tariqi shutter esa ahli tahqiq va komil bo'lgan oriflarning yo'lidir. Bu yo'lning komillik martabasi haqq al-yaqin martabasiga erishishdir.

Hamaviy, qalandarlar kabi o'zlarini tasavvufga nisbat berganlarni esa bu uch yo'lning hech biriga mansub hisoblamaydi. Shuning uchun ularni ahli tariq deb ham hisoblamaydi. Zero, uningcha, tariqat haq yo'lidir. Holbuki, ular botil yo'ldadirlar. Hamaviy ularning botil yo'lda ekanligini quyidagi misralar bilan tasvirlagan:

این کوی قلندر است و میدان آن هلاک وین راه مقاهران با زنده پاک

"Bu halokat maydoni bo'lgan qalandarlar mahallasi. Mana bu esa pokizaligi bilan ko'zga tashlanadigan mashaqqatli so'fiylarning hayot to'la yo'lidir".

Tolibning so'fiy bo'lishi uchun bajarishi lozim bo'lgan uchinchi shart esa haqiqat ilmini talab qilishdir. Haqiqat ilmi g'ayb va shahodat ilmi bo'lib, u kasb va amalga suyanish bilan birga, Alloh tanlangan bandalariga in'om etgan mavhibadir. Bu ilm aql, sezgi a'zolari va xabari

sodiq orqali o'rganilganidek, ilhom, basirat, futuhot, farosat, xavotir, tush, mushohada, muhodara, mukoshafa, tajalli, yaqin va vorid kabi so'fiylarga xos yo'llar bilan ham hosil qilinadi. Hamaviy haqiqat ilmini ilm-i mukoshafa deb ataydi va "nur" deb ta'riflaydi. Chunki uningcha, bu ilm qalb ustidagi zulmat pardalarining ko'tarilishi natijasida hosil bo'ladi. Ilm-i mukoshafa nubuvvat bilan bir manba'dan oziqlanishiga shubha qilinmaydigan ilmdir. Bu ilmning nubuvvat kabi harom va halolga hukm manbai bo'lmasligining sababi zonniy bo'lganidan emas, balki bu ish uchun faqat payg'ambarlar tayinlanganligidandir.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib, shunday muhim xulosalarga kelish mumkin:

- Sa'diddin Hamaviyning tasavvufga oid qarashlari islom dini va uning muqaddas manbasi hisoblangan Qur'oni Karimdagi g'oyalarga asoslangan hamda tasavvufning amaliy va nazariy jihatlarini bir-biri bilan aloqadorlikda o'rgangan kamdan-kam allomalar sirasiga kiradi;

- Hamaviyga ko'ra tasavvuf haqiqatga erishish, qalb tasfiyasi, nafs tazkiyasi, axloq tarbiyasi haqidagi ilmdir;

- Mutasavvifning tasavvufga oid qarashlarida shariat, tariqat va haqiqatning dialektik aloqadorligi yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, Hamaviy tolibning tariqat va haqiqatga shariatsiz erisha olmasligini alohida ta'kidlagan;

- Hamaviy tariqatlar tariqi abror, tariqi axyor va tariqi shuttor kabilarga tasnif etib, tariqi abror nafs ammoraning kamol martabasiga erishganlarning, tariqi axyor nafs lavvomaning kamol martabasiga erishganlarning, tariqi shuttor esa ahli tahqiq va komil bo'lgan oriflarning yo'lidir deb ta'kidlaydi. Umumiy nuqtai nazardan aytganda, Sa'diddin Hamaviyning tasavvufga oid diniy, falsafiy g'oyalarini o'rganish mazkur ta'limotning haqiqiy mazmuni va mohiyatiga oid qarashlarimizni yanada boyitish va oydinlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Али ибн Усман аль-Джулаби аль-Худжвири. Раскрытие скрытого за завесой для сведущих в тайнах сердец (Кашф аль-махжуб ли арбаб аль кулуб). / Перевод с английского А.Орлова, Изд. Перв. – Москва: Единство, 2004. – 504 с.

2. Sa'deddin Hammûyi. Babru'l-Meani, Süleymaniye Kütüphanesi, Fazıl Ahmed Paşa, no: 706, vr. 83a.

3. Саъдиддин Ҳамавий. Таъриф ут-тасаввуф. Истанбул. Ҳожи Салим ого кутубхонаси. №: 491, варақ 131b.

4. Sa'deddin Hammûyi. Makalat fit-Tasavvuf. Süleymaniye Kütüphanesi, Fazıl Ahmed Paşa, no: 706, vr.126b